

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 8 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 8

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 8



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Надира Махкамова

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЎРНАТИЛГАНИДАН КЕЙИН ТУРКИСТОНДА ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ ТУЗИЛМАСИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ.....5

2. Ollabergan Allaberganov

1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR.....13

3. Zaxra Mirzayeva

K.P. FON KAUFMAN MA’MURIYATINING ILK KO‘RGAZMA TASHABBUSLARI.....17

4. Akmal Mengliboyev

SOVET HOKIMIYATI O‘RNATILISHI ARAFASIDAGI JANUBI-SHARQIY BUXORODA VAZIYAT.....23

5. Xushnudbek Mamadaliev

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI SHAHRLARIDAGI DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR.....28

6. Xosiyat Nafiddinova

MDH DAVLATLARIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI.....35

7. Бекзод Пайзуллаев

БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ЖИЗЗАХ, ЎРАТЕПА ВА ХЎЖАНД УЧУН КУРАШЛАРИ ТАРИХИ БЎЙИЧА МУЛОҲАЗАЛАР.....39

8. Mo‘minjon Salayev

BAQTRIYA HUUJATLARIDA AYOLLARNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY MAQOMI (IV – VIII ASRLAR).....46

9. Nafisa Hayotova

БУХОРО ШАҲРИ МЕЪМОРИЙ МУҲИТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР: СИЁСИЙ ҲОКИМИЯТ ВА МЕЪМОРИЙ УСЛУБ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК.....55

10. Sevara Elmurodova


O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI.....64

11. Ziyodulla Eshmirzayev

TO‘G‘ONSIZ SUG‘ORISHDAN MUHANDISLIK NAZORATIGA: XORAZMVOHASI IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI BURILISH (1946–1991-YILLAR).....75

12. Абзамжон Юсупов

ФАРҶОНА ВОДИЙСИ ЖАДИДЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ.....81



Sevara Aliqulovna Elmurodova,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI

For citation: Sevara A.Elmurodova. THE ESSENCE OF REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AT THE NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 8.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22010459>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilotlari sohasida amalga oshirilgan institutsional, tashkiliy, huquqiy, moliyaviy va pedagogik islohotlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'limning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, sohani boshqarishning yangi mexanizmlarining joriy etilishi, davlat-xususiy sheriklikning rivojlantirilishi, nodavlat va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ining kengaytirilishi, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlarining oshirilishi hamda ta'lim mazmunining yangilanishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, muqobil ta'lim shakllari, raqamlashtirish, pedagog kadrlar malakasini oshirish, inklyuziv yondashuv, sog'lom ovqatlanish va ta'lim sifatini baholash tizimlarining ahamiyati yoritiladi. Maqolada amalga oshirilgan islohotlarning ijtimoiy ahamiyati, mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalar yuzasidan ilmiy-amaliy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim islohoti, davlat-xususiy sheriklik, "Ilk qadam" dasturi, qamrov, pedagog kadrlar, raqamlashtirish, inklyuziv ta'lim, inson kapitali.

Эльмуродова Севара Аликуловна,
независимый исследователь,

Узбекский государственный университет мировых языков

СУТЬ РЕФОРМ, ПРОВЕДЕННЫХ В СФЕРЕ ОРГАНИЗАЦИЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется сущность институциональных, организационных, правовых, финансовых и педагогических реформ, проведенных в сфере организаций дошкольного образования на новом этапе развития Узбекистана. Особое внимание уделяется вопросам повышения уровня дошкольного образования до уровня государственной политики, внедрения новых механизмов управления сектором, развития государственно-

частного партнерства, расширения сети неправительственных и семейных организаций дошкольного образования, повышения охвата детей дошкольным образованием и обновления содержания образования. Также подчеркивается важность государственной учебной программы «Первый шаг», альтернативных форм образования, цифровизации, повышения квалификации педагогических кадров, инклюзивного подхода, здорового питания и систем оценки качества образования. В статье представлены научно-практические выводы о социальной значимости проведенных реформ, существующих проблемах и задачах на будущее.

Ключевые слова: дошкольное образование, организация дошкольного образования, реформа образования, государственно-частное партнерство, программа «Первый шаг», охват, педагогический персонал, цифровизация, инклюзивное образование, человеческий капитал.

Sevara A.Elmuurodova,
independent researcher
at the Uzbek State University of World Languages

THE ESSENCE OF REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AT THE NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article analyzes the essence of the institutional, organizational, legal, financial and pedagogical reforms implemented in the field of preschool educational organizations at the new stage of Uzbekistan's development. Particular attention is paid to the issues of raising preschool education to the level of state policy, introducing new mechanisms for managing the sector, developing public-private partnerships, expanding the network of non-governmental and family preschool educational organizations, increasing the coverage of children with preschool education, and updating the content of education. The importance of the "First Step" state curriculum, alternative forms of education, digitalization, advanced training of pedagogical personnel, an inclusive approach, healthy nutrition, and education quality assessment systems is also highlighted. The article presents scientific and practical conclusions on the social significance of the reforms implemented, existing problems and future tasks.

Index Terms: preschool education, preschool education organization, education reform, public-private partnership, "First Step" program, coverage, pedagogical staff, digitalization, inclusive education, human capital.

1. Dolzarbligi:

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, inson kapitalining sifati bilan belgilanadi. Inson kapitalini shakllantirish esa bolaning ilk rivojlanish davridan boshlanadi. Maktabgacha yosh — bolaning jismoniy, aqliy, ruhiy, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlari faol shakllanadigan muhim bosqichdir. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimi nafaqat ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini, balki jamiyatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilovchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ilgari maktabgacha ta'lim asosan bolalarni parvarish qilish va maktabga tayyorlash bilan bog'liq faoliyat sifatida talqin qilingan bo'lsa, yangi bosqichda u bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan, oilani qo'llab-quvvatlaydigan va jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga xizmat qiladigan strategik soha sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv maktabgacha ta'limni boshqarish, moliyalashtirish, mazmunan yangilash va pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida keng ko'lamli o'zgarishlarni taqozo etdi.

2019-yilda tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi islohotlarning uzoq muddatli strategik asosini yaratdi. Mazkur konsepsiyada maktabgacha ta'lim bilan qamrovni oshirish, ta'lim xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, boshqaruv va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash hamda bolalarning sog'lom ovqatlanishi va tibbiy parvarishini yaxshilash kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan[1]. Mazkur islohotlarning asosiy mohiyati maktabgacha ta'limni alohida, yopiq tizim sifatida emas, balki oila, mahalla, maktab, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va nodavlat sektor bilan uzviy hamkorlik qiladigan kompleks ijtimoiy institutga aylantirishdan iboratdir. Shu jihatdan, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni faqat yangi bog'chalar qurilishi yoki bolalarni qamrab olish ko'rsatkichlarining o'sishi bilan cheklab bo'lmaydi. Ular, avvalo, ta'limning mazmuni, sifati, boshqaruv usullari, moliyaviy mexanizmlari va pedagogik falsafasining yangilanishini ifodalaydi.

Metodlar:

Maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy-tarixiy, tizimli, statistik, dinamik va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik asosini O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari, Prezident farmon va qarorlari, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar yillar va ko'rsatkichlar kesimida qiyoslandi, umumlashtirildi hamda maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning qamrov va sifat ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari:

Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning dastlabki va muhim yo'nalishi huquqiy-institutsional bazani shakllantirish bo'ldi. Soha boshqaruvining mustaqil va ixtisoslashgan tizimga ajratilishi maktabgacha ta'lim muammolarini alohida davlat siyosati sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining huquqiy maqomi, faoliyat yo'nalishlari, ta'lim-tarbiya mazmuni, pedagoglarning vazifalari, ota-onalar bilan hamkorlik va davlat nazorati masalalari bosqichma-bosqich takomillashtirildi.

Huquqiy islohotlarning muhim natijasi maktabgacha ta'lim xizmatlarini tashkil etishning turli shakllariga yo'l ochilgani bo'ldi. Davlat tashkilotlari bilan bir qatorda xususiy, oilaviy, davlat-xususiy sheriklik asosidagi va muqobil maktabgacha ta'lim shakllarining rivojlanishi ta'lim xizmatlari bozorini kengaytirdi. Natijada ota-onalar uchun tanlov imkoniyati oshdi, hududlarda maktabgacha ta'lim infratuzilmasini tezroq rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida boshqaruv jarayonlariga zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish, aniq natijadorlik ko'rsatkichlarini belgilash, xodimlarni tanlash va baholash, sifat menejmenti tizimlarini rivojlantirish hamda moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini qo'llash vazifalari nazarda tutilgan. Bu yondashuv boshqaruvni faqat ma'muriy nazoratga asoslangan tizimdan aniq natija va sifat ko'rsatkichlariga yo'naltirilgan tizimga o'tkazishni ko'zda tutadi.

2024-yil davomida maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga oid qator qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari va hukumat hujjatlarining qabul qilingani sohada me'yoriy tartibga solish jarayoni davom etayotganini ko'rsatadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda maktabgacha ta'lim yo'nalishida yangi tashkilotlar ochish, ta'lim qamrovini oshirish, metodik ta'minotni yaxshilash, pedagoglarning malakasini oshirish, xalqaro baholash tizimlaridan foydalanish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilgan.

Shu bilan birga, huquqiy bazaning mavjudligi islohotlarning yakuniy natijasini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Huquqiy normalarning hududlarda bir xil qo'llanishi, ota-onalar va pedagoglarning o'z huquq hamda majburiyatlarini bilishi, boshqaruv qarorlarining ochiqqligi va jamoatchilik nazoratining ta'minlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Demak, institutsional islohotlarning samarasi qonunlarning soni bilan emas, balki ularning amaliyotga qanchalik to'liq tatbiq etilishi bilan baholanishi kerak.

O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning eng ko'zga ko'ringan yo'nalishlaridan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va bolalarni ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirishdir. Bu vazifa demografik o'sish, yosh oilalar sonining ko'payishi, ayollar bandligini ta'minlash va maktabga tayyorgarlik sifatini yaxshilash ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil davomida 4 644 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etilib, 170 310 ta qo'shimcha o'rin yaratildi. Natijada bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi 76 foizga yetdi; 2023-yilda bu ko'rsatkich 74 foizni tashkil etgan. Shuningdek, olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasi 96 foizga yetkazilgan[2].

Mazkur ko'rsatkichlar islohotlarning miqyosini ko'rsatib bersa-da, qamrovni oshirish masalasini faqat son jihatdan baholash yetarli emas. Qamrov bilan bir qatorda ta'lim xizmatlarining sifati, tashkilotlarning moddiy-texnik holati, guruhlardagi bolalar soni, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, ovqatlanish sifati va bolalar xavfsizligi ham e'tiborda bo'lishi lozim. Aks holda, bolalarni ta'lim tashkilotlariga jalb qilishning o'zi kutilgan pedagogik va ijtimoiy natijani bermasligi mumkin. Qamrovni kengaytirishda nodavlat va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhim o'rin egalladi. 2024-yilda tashkil etilgan yangi o'rinlarning katta qismi oilaviy nodavlat bog'chalar hisobiga to'g'ri kelgan. Bu holat xususiy tashabbusni qo'llab-quvvatlash va nisbatan kichik moliyaviy resurslar hisobiga ko'proq bolani ta'limga jalb qilish imkonini berdi [2].

Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining afzalligi ularning mahallaga yaqin joylashishi, kichik guruhlar asosida faoliyat yuritishi va ota-onalar ehtiyojiga moslashuvchanligidadir. Ayniqsa, yangi davlat bog'chasi qurish uchun katta mablag' va vaqt talab qilinadigan hududlarda oilaviy shakl muhim muqobil yechim bo'la oladi. Biroq mazkur tashkilotlarda ta'lim sifati, sanitariya-gigiyena talablari, pedagogik kadrlar tayyorgarligi va bolalar xavfsizligini ta'minlash ustidan samarali nazorat mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Olis va infratuzilmasi cheklangan hududlarda muqobil shakllarning joriy etilishi ham islohotlarning muhim natijalaridan biridir. 2024-yilda 156 ta mahallada "AQLVOY" mobil guruhlari tashkil etilib, 429 ta guruh orqali 9,5 ming nafar bola qamrab olingan. Shuningdek, Namangan va Xorazm viloyatlarida turli yoshdagi bolalar uchun o'yin guruhlari tashkil etilgan, Namangan va Samarqand viloyatlarida esa erta rivojlanish markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan[2]. Bunday shakllar qamrovning hududiy tengligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Chunki O'zbekistonda shahar va qishloq, markaziy va chekka hududlar o'rtasida infratuzilma, kadrlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari jihatidan farqlar mavjud. Mobil guruhlar, o'yin guruhlari va erta rivojlanish markazlari mazkur tafovutlarni qisqartirishga xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy natijalaridan biri bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasining sezilarli ravishda oshganidir. 2017-yilda 3–7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi 27,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 71,8 foizga yetgan. Shunday qilib, olti yil davomida qamrov darajasi qariyb 44,1 foizga oshgan va 2017-yilga nisbatan 2,5 barobardan ko'proq o'sish kuzatilgan[3].

T/r	Yil	Maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi	Izoh
1.	2017-yil	27,7%	
2.	2023-yil	71,8%	
3.	2023-yil oxiri uchun reja	74,5%	
4.	2024-yil	76%	
	2030-yil uchun strategik maqsad	80% va undan yuqori	

2024-yil yakunlari bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotlarida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 76 foizga yetgani qayd etilgan. Mazkur davrda 4 644 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etilib, 170 310 ta yangi o'rin yaratildi. Bu esa

qamrov dinamikasining faqat demografik yoki statistik o'zgarishlar hisobiga emas, balki yangi ta'lim tashkilotlari, oilaviy bog'chalar, davlat-xususiy sheriklik loyihalari va muqobil ta'lim shakllari hisobiga ta'minlanganini ko'rsatadi[2]. Shu bilan birga, rasmiy statistik ma'lumotlarda 2024-yil yakuni bo'yicha 3–6 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovi 72,4 foizni tashkil etgani ko'rsatilgan. Ushbu ko'rsatkichda o'g'il bolalar qamrovi 74,9 foiz, qiz bolalar qamrovi esa 69,6 foiz bo'lgan. Mazkur raqamlar ma'muriy hisobotlarda keltirilgan 76 foizlik ko'rsatkichdan farq qiladi. Bu tafovut, avvalo, hisob-kitob metodikasi, yosh guruhlari, hisobot davri va qamrovni aniqlash mezonlarining turlicha qo'llanishi bilan izohlanishi mumkin. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarda ko'rsatkichlardan foydalanishda ularning qaysi manba, yosh guruhi va hisoblash metodikasiga asoslanganini alohida ko'rsatish lozim[4]. Qamrovning o'sish dinamikasini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin. Birinchi bosqich 2017–2019-yillarni qamrab olib, bu davrda maktabgacha ta'lim sohasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirish, alohida boshqaruv tizimini shakllantirish va yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish jarayoni boshlandi. 2019-yilda Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlanishi qamrovni oshirish bo'yicha uzoq muddatli strategik maqsadlarni belgilab berdi[1].

Ikkinchi bosqich 2020–2022-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishga e'tibor kuchaydi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, subsidiya va imtiyozlar, kichik quvvatli oilaviy bog'chalar hamda muqobil ta'lim shakllari orqali yangi o'rinlar yaratildi. Ushbu mexanizmlar, ayniqsa, yangi davlat bog'chalarini qurish imkoniyati cheklangan hududlarda bolalarni ta'limga jalb etishning muhim vositasiga aylandi.

Uchinchi bosqich 2023–2024-yillarni qamrab oladi. Bu davrda qamrovni oshirish bilan birga, olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini kengaytirish, ta'lim mazmunini yangilash va muqobil guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish masalalariga katta e'tibor qaratildi. 2024-yilda olti yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim va maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasi 96 foizga yetkazildi. Bu ko'rsatkich bolaning maktabga tayyorgarligini ta'minlash, boshlang'ich ta'limdagi moslashuv jarayonini yengillashtirish va ta'limdagi dastlabki tengsizliklarni kamaytirish nuqtayi nazaridan muhimdir [2].

Olti yoshli bolalarni qamrab olish bo'yicha hududlar kesimida ham nisbatan yuqori natijalar qayd etilgan. 2023/2024-o'quv yili ma'lumotlariga ko'ra, mazkur yosh guruhidagi bolalarni tayyorlov tizimi bilan qamrab olish Navoiy viloyatida 95,2 foiz, Sirdaryo viloyatida 93,9 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Buxoro viloyatida 93,4 foizni tashkil etgan. Ayrim boshqa hududlarda ham qamrov 92–93 foiz atrofida bo'lgan. Bu holat olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha hududlararo tafovutning nisbatan kamayganini ko'rsatadi[5].

Qamrov dinamikasining ijobiy o'sishida maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining ko'payishi muhim omil bo'ldi. 2017-yilda mamlakatda 5 211 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 29 420 taga yetgan. Tashkilotlar sonining bunday tez sur'atlarda ko'payishi davlat, nodavlat, oilaviy va davlat-xususiy sheriklik asosidagi ta'lim muassasalarining birgalikdagi rivojlanishi bilan bog'liq[3]. Biroq maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining ko'payishi qamrovning yagona omili emas. Qamrovni oshirishda guruhlardagi mavjud o'rinlar soni, bolalarning hududiy joylashuvi, ota-onalarning iqtisodiy imkoniyatlari, transport masofasi, ta'lim xizmatlari narxi, tashkilotlarning ish vaqti hamda bolalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli qamrovni tahlil qilishda tashkilotlar soni bilan bir qatorda real o'rinlar soni, bo'sh o'rinlar, navbatda turgan bolalar va ta'limdan chetda qolayotgan bolalar ulushi ham o'rganilishi zarur.

2025-yilda qamrovni yanada oshirish maqsadida 3–7 yoshli bolalar uchun hududlar va mahallalar kesimida maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi. Ushbu yondashuvda hududlarning demografik o'sishi, aholining to'lov qobiliyati, kambag'allik darajasi va mavjud infratuzilmasi hisobga olinishi ko'zda tutilgan. To'lov qobiliyati yuqori bo'lgan mahallalarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat bog'chalar, olis hududlarda oilaviy bog'chalar, kambag'al oilalar ko'p bo'lgan hududlarda esa davlat ko'magidagi ta'lim tashkilotlari va qisqa muddatli guruhlar tashkil etilishi belgilangan[6].

Mazkur hududiy differensial yondashuv qamrov siyosatining manzilliligini oshiradi. Chunki barcha mahallalar uchun yagona modeldan foydalanish amaliy jihatdan samarali emas. Aholi zich, demografik o'sish yuqori bo'lgan hududlarda katta quvvatli bog'chalar zarur bo'lsa, olis qishloqlarda mobil yoki oilaviy guruhlar ko'proq samara berishi mumkin. Kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda esa davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, subsidiya va bepul yoki imtiyozli ta'lim xizmatlarini kengaytirish talab etiladi.

Qamrov ko'rsatkichlari gender jihatdan ham tahlil qilinishi lozim. 2024-yil ma'lumotlarida o'g'il bolalar qamrovi qiz bolalar qamrovidan yuqoriroq bo'lgan: mos ravishda 74,9 foiz va 69,6 foiz. O'rtadagi 5,3 foizlik tafovut qizlarning maktabgacha ta'limga jalb etilishida oilaviy qarashlar, hududiy sharoit, ta'lim tashkilotining uzoqligi yoki iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglatadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim siyosatida gender statistikasi muntazam yuritilishi va qiz bolalar qamrovining pastroq bo'lish sabablarini hududlar kesimida o'rganish muhimdir [7]. Qamrovni oshirishning alohida yo'nalishi — chekka va infratuzilmasi zaif hududlarda muqobil ta'lim shakllarini joriy etishdir. 2024-yilda "AQLVOY" mobil guruhlar, turli yoshdagi bolalar uchun o'yin guruhlar va erta rivojlanish markazlari tashkil etildi. Bunday shakllar doimiy bog'cha tashkil etish imkoniyati mavjud bo'lmagan mahallalarda bolalarning maktabgacha ta'limdan foydalanishini ta'minlaydi[2].

Umuman, bolalarni qamrab olish ko'rsatkichlari dinamikasi O'zbekistonda 2017-yildan boshlab maktabgacha ta'lim sohasida izchil o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. Qamrov darajasi 27,7 foizdan 70 foizdan yuqori ko'rsatkichga ko'tarilgan, olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlash qamrovi esa 96 foizga yetgan. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida maktabgacha ta'lim bilan qamrovni 80 foizga, maktabga tayyorlov guruhlar bilan qamrovni esa 100 foizga yetkazish maqsadlari belgilangan[8].

Biroq kelgusidagi asosiy vazifa faqat qamrov foizini oshirish emas, balki qamrovning mazmuniy va sifat jihatlarini mustahkamlashdan iborat. Buning uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- hududlar bo'yicha qamrov ko'rsatkichlarini yagona metodika asosida hisoblash;
- 3–7 yoshli bolalar orasida ta'limdan chetda qolayotgan guruhlarini aniqlash;
- qizlar va o'g'il bolalar qamrovidagi tafovutlarni kamaytirish;
- chekka hududlarda oilaviy, mobil va qisqa muddatli guruhlarini rivojlantirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'chalarda narx va sifat muvozanatini ta'minlash;
- mavjud tashkilotlarda bo'sh o'rinlardan samarali foydalanish;
- qamrov ko'rsatkichlarini ta'lim sifati, bolalarning rivojlanish natijalari va ota-onalar qoniqishi bilan birgalikda baholash.

Demak, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlarining o'sishi O'zbekistonda ta'lim siyosatining muhim natijalaridan biridir. Ushbu dinamika maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ining kengayishi, nodavlat sektorning rivojlanishi, davlat-xususiy sheriklikning kuchayishi va maktabga tayyorlov tizimining takomillashuvi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, qamrovning barqaror va adolatli bo'lishi uning hududiy, gender va ijtimoiy tenglik mezonlari asosida baholanishini talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning muhim jihatlaridan biri davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengaytirilishidir. Davlat byudjeti imkoniyatlari cheklangan sharoitda aholining tez o'sib borayotgan ta'lim ehtiyojlarini faqat davlat tashkilotlari hisobidan qondirish murakkabdir. Shu bois xususiy sektorni sohaga jalb etish yangi binolar barpo etish, mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish, ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish va boshqaruv tajribasini takomillashtirish imkonini beradi.

Davlat-xususiy sheriklikning mohiyati xususiy tadbirkorlik tashabbusini davlat kafolatlari, imtiyozlari va tashkiliy ko'magi bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Bunday hamkorlik doirasida tadbirkorlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi, ularni jihozlashi va xizmat ko'rsatishi mumkin; davlat esa bolalar qamrovini kengaytirish, ijtimoiy muhim xizmatlarni hududlarga yetkazish va belgilangan sifat talablariga rioya etilishini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

2024-yilda OPEK ishtirokida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish loyihasi doirasida 20 million AQSH dollari miqdorida davlat tashqi qarzi jalb qilingan. Mazkur loyiha doirasida 2025-yilda 20 ta bog'cha tashkil etish va 3 ming nafar bolani qamrab olish rejalashtirilgan[2].

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda uchta masalaga alohida e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, xususiy tashkilotlar faoliyati aholining turli qatlamlari uchun qulay va maqbul bo'lishi kerak. Agar nodavlat ta'lim xizmatlari faqat yuqori daromadli oilalar uchun ochiq bo'lsa, hududiy va ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkin. Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik asosidagi tashkilotlarda ta'lim sifati yagona davlat talablariga javob berishi zarur. Uchinchidan, moliyaviy majburiyatlar, subsidiya va kompensatsiyalardan foydalanish jarayoni shaffof bo'lishi kerak.

Shuningdek, xususiy sektorni faqat bino quruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi subyekt sifatida emas, balki ta'lim mazmuni, innovatsion metodikalar, raqamli platformalar, bolalar ovqatlanishi va pedagog kadrlarni rivojlantirish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarning sifat jihatdan eng muhim yo'nalishi ta'lim mazmunining yangilanishidir. Zamonaviy maktabgacha ta'lim bolaning faqat ma'lum bilimlarni egallashini emas, balki mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishishi, muammoli vaziyatlarda yechim topishi, hissiy jihatdan barqaror bo'lishi, jamoada faoliyat yuritishi va ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishini ta'minlashi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining joriy etilishi muhim pedagogik yangilik bo'ldi. Ushbu dastur ta'lim-tarbiya jarayonini bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos tashkil etish, faoliyat markazlari orqali o'qitish, o'yin asosida rivojlantirish, bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olishga yo'naltirilgan. Dasturda tarbiyalanuvchilarning jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutqiy, bilish va ijodiy rivojlanishiga kompleks yondashuv mujassam.

Mazkur yondashuv an'anaviy "tarbiyachi gapiradi — bola tinglaydi" modelidan farq qiladi. Unda bola ta'lim jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida qaraladi. Tarbiyachi esa faqat bilim beruvchi emas, balki bolaning izlanishi, savol berishi, tajriba o'tkazishi va mustaqil faoliyatini tashkil etuvchi pedagogik hamroh vazifasini bajaradi.

Ta'lim mazmunini yangilashda milliy qadriyatlar va zamonaviy kompetensiyalar uyg'unligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona tiliga hurmat, o'zlikni anglash, tabiatga ehtiyotkor munosabat, kattalarga hurmat, tengdoshlarga do'stona munosabat, mehnatsevarlik va mas'uliyat kabi sifatlar shakllantirilishi bilan birga, muloqot, raqamli savodxonlikka dastlabki tayyorgarlik, kreativ fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari ham rivojlantirilishi lozim.

2024-yilda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'quv-metodik va didaktik materiallar bilan ta'minlashga ham e'tibor qaratildi. Rasmiy hisobotga ko'ra, 6 841 ta davlat bog'chasi 49 nomdagi o'quv-metodik va didaktik materiallar bilan ta'minlangan. Biroq materiallarning mavjudligi bilan bir qatorda ulardan pedagogik jihatdan to'g'ri foydalanish, ularni hududiy va lingvistik xususiyatlarga moslashtirish ham muhimdir[2].

Maktabgacha ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omil pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligidir. Zamonaviy tarbiyachi bolalar psixologiyasi, pedagogika, nutqni rivojlantirish metodikasi, inklyuziv ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sog'lom ovqatlanish va bolalar xavfsizligi masalalarini chuqur bilishi lozim.

Shu sababli sohada pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. 2024-yilda Rossiya davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlikda maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachilari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilgan. "KOICA" bilan hamkorlik doirasida pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, master-trenerlar tayyorlash ishlari amalga oshirilgan. Bundan tashqari, nodavlat bog'chalarning 10 ming nafar pedagogi bepul qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o'qitilgan[2].

Bu ko'rsatkichlar pedagoglarni kasbiy rivojlantirish tizimining ko'lamini kengayayotganini ko'rsatadi. Biroq malaka oshirishni faqat qisqa muddatli kurslar bilan cheklab bo'lmaydi. Pedagogning kasbiy rivojlanishi uzluksiz, amaliyotga yo'naltirilgan va individual ehtiyojlarga mos

bo'lishi kerak. Bunda mentorlik, o'zaro dars kuzatuv, metodik hamkorlik, videodarslarni tahlil qilish, amaliy seminarlar va professional hamjamiyatlar katta samara beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim vazifadir. Ta'lim tashkiloti rahbari pedagogik jarayon, inson resurslari, moliyaviy boshqaruv, ota-onalar bilan hamkorlik, bolalar xavfsizligi va jamoatchilik bilan aloqalarni samarali tashkil etishi kerak. Shu maqsadda direktorlar uchun menejerlik o'quv kurslarini tashkil etish asoslari yaratilgan va 2025-yildan boshlab direktorlar hamda direktorlikka nomzodlarni o'qitish rejalashtirilgan[1].

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim pedagoglarining ish haqini 2023-yilga nisbatan ikki baravarga oshirish, 2030-yilgacha 500 ming nafar xodimning malakasini uzluksiz oshirish kabi maqsadlar belgilangan[8]. Maktabgacha ta'lim tizimining yangi bosqichdagi muhim xususiyatlaridan biri raqamli texnologiyalarni boshqaruv va ta'lim jarayonlariga joriy etishdir. Raqamlashtirish davomatni nazorat qilish, oziq-ovqat va moddiy resurslar hisobini yuritish, ota-onalar bilan aloqa qilish, pedagogik faoliyatni monitoring etish hamda boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi.

2024-yilda 6 891 ta davlat bog'chasida tarbiyalanuvchilar davomatini biometrik identifikatsiya texnologiyasi asosida yuritish uchun 6 910 ta planshet va 6 716 ta Wi-Fi router yetkazib berilgan. Ushbu tizim elektron jadvallarni shakllantirish, asosiy ko'rsatkichlarni qayd etish va oziq-ovqat xarajatlarini hisobga olish imkonini yaratgan[2].

Raqamlashtirishning afzalligi ma'lumotlarning tezkorligi va boshqaruv shaffofligini oshirish bilan bog'liq. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, pedagoglarni texnik jihatdan tayyorlash, internet sifati va hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutlarni hisobga olish zarur. Texnologiya pedagogik jarayonning maqsadi emas, balki uning samaradorligini oshiruvchi vosita bo'lishi kerak.

Ta'lim sifatini baholash borasida xalqaro yondashuvlarning joriy etilishi ham ijobiy o'zgarishdir. 2024-yilda 250 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xalqaro MELQO baholash tizimi orqali baholangan. Ushbu jarayonda ota-onalar, tarbiyalanuvchilar, direktorlar va tarbiyachilar ishtirok etgan. MELQO kabi tizimlar ta'lim sifatini faqat yakuniy natija asosida emas, balki ta'lim muhiti, pedagogik jarayon, bola rivojlanishi va ota-onalar ishtiroki kabi bir necha mezonlar asosida o'rganish imkonini beradi[1].

Ta'lim sifatini baholashning asosiy maqsadi tashkilotlarni jazolash emas, balki mavjud muammolarni aniqlash va rivojlanish yo'nalishlarini belgilash bo'lishi kerak. Shuning uchun baholash natijalari pedagogik jamoaga metodik yordam ko'rsatish, infratuzilmani yaxshilash va individual rivojlanish rejasini tuzish bilan bog'lanishi lozim.

Maktabgacha ta'limdagi yangi islohotlar barcha bolalar, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyat yaratishni nazarda tutadi. Inklyuziv yondashuv bolaning jismoniy yoki psixologik xususiyatlari sababli ta'limdan chetda qolishining oldini olish, uning tengdoshlari bilan birgalikda rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan.

Inklyuziv maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun binolarning qulayligi, maxsus pedagogik va psixologik xizmatlar, individual rivojlanish dasturlari, tarbiyachilarning maxsus tayyorgarligi hamda ota-onalar bilan hamkorlik zarur. Bu yo'nalishda faqat tashkilotga bolani qabul qilishning o'zi yetarli emas; ta'lim muhiti bolaning ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak.

Bolalar salomatligini ta'minlash ham maktabgacha ta'lim islohotlarining tarkibiy qismidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va muvozanatli ovqatlanish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, muntazam tibbiy ko'riklar, jismoniy faollik va psixologik farovonlik masalalari ta'lim sifati bilan bevosita bog'liq.

2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatidagi bog'chalarda oziq-ovqat ta'minoti, sog'lom ovqatlanish bo'yicha xodimlar malakasini oshirish va metodik materiallar yetkazib berish bo'yicha xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirilgan. Shuningdek, direktorlar, xo'jalik mudirlari, oshpazlar va tibbiyot xodimlari uchun amaliy o'quvlar tashkil etilgan[2].

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza suv bilan ta’minlash darajasini 2030-yilgacha 100 foizga, suv, sanitariya va gigiyena sharoitlariga ega tashkilotlar ulushini 86 foizga yetkazish maqsadlari belgilangan. Bu ko‘rsatkichlar maktabgacha ta’limni faqat pedagogik emas, balki sanitariya, tibbiyot va ijtimoiy himoya masalalari bilan bog‘liq kompleks tizim sifatida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi[8].

Maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlar bir nechta muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Birinchidan, ular bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sifatli maktabgacha ta’lim olgan bola maktab bosqichiga ijtimoiy, ruhiy va bilish jihatidan yaxshiroq tayyorlanadi. Bu esa keyingi ta’limdagi muvaffaqiyatlar uchun zamin yaratadi.

Ikkinchidan, maktabgacha ta’lim ayollar bandligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bola parvarishi va tarbiyasi bilan bog‘liq mas’uliyatning bir qismi professional ta’lim tashkilotlariga o‘tkazilganda, ayollar mehnat bozorida faolroq ishtirok etishi mumkin. Shu ma’noda, maktabgacha ta’lim xizmatlarini kengaytirish gender tengligi va oilalarning iqtisodiy farovonligini ta’minlashning muhim vositasidir.

Uchinchidan, maktabgacha ta’lim ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Kam ta’minlangan, chekka hududlarda yashovchi yoki alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar uchun sifatli ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengaysa, ularning keyingi ta’lim va hayotiy imkoniyatlari ham yaxshilanadi. Bunda qamrovning o‘zi bilan bir qatorda ta’lim mazmuni va pedagogik xizmatlar sifati ham teng bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, maktabgacha ta’lim milliy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishning muhim vositasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona tili, milliy urf-odatlar, tarixiy xotira, tabiatga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ularining dastlabki asoslari shakllanadi. Biroq tarbiyaviy jarayon bolaga tayyor g‘oyalarni majburan singdirish emas, balki uning yoshiga mos o‘yin, suhbat, ijodiy faoliyat va amaliy tajriba orqali amalga oshirilishi lozim.

Erishilgan natijalarga qaramay, maktabgacha ta’lim sohasida hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Birinchi muammo — qamrov va sifat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir. Yangi tashkilotlar sonining ko‘payishi ijobiy natija bo‘lsa-da, barcha hududlarda ta’lim sifati bir xil darajada ta’minlanayotgani haqida xulosa chiqarish uchun muntazam va mustaqil monitoring zarur.

Ikkinchi muammo — hududlar o‘rtasidagi tafovutdir. Poytaxt va yirik shaharlarda zamonaviy bog‘chalar, malakali pedagoglar va xususiy ta’lim xizmatlari ko‘proq bo‘lishi mumkin. Qishloq va olis hududlarda esa bino, transport, internet, pedagog kadrlar va metodik ta’minot bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda.

Uchinchi muammo — pedagoglarning ish yuklamasi va kasbiy maqomidir. Maktabgacha ta’lim pedagogi kichik yoshdagi bolalar bilan murakkab psixologik va pedagogik sharoitda ishlaydi. Shuning uchun uning ish haqi, mehnat sharoiti, ijtimoiy himoyasi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yetarli darajada ta’minlanishi kerak.

To‘rtinchi muammo — ota-onalar bilan hamkorlikning mazmunan takomillashtirilishidir. Maktabgacha ta’lim samarasi faqat tashkilot faoliyatiga emas, oiladagi tarbiya muhitiga ham bog‘liq. Ota-onalarga bolaning rivojlanish xususiyatlari, ijobiy tarbiya, raqamli xavfsizlik, sog‘lom ovqatlanish va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish lozim.

Kelgusida quyidagi vazifalarga ustuvor e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish bilan birga ta’lim sifatining minimal va yuqori standartlarini aniq belgilash;
- qishloq va olis hududlar uchun mobil guruhlar, o‘yin guruhlari va erta rivojlanish markazlarini kengaytirish;
- oilaviy va nodavlat tashkilotlar faoliyatida yagona sifat, xavfsizlik va sanitariya mezonlarini ta’minlash;
- tarbiyachilar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish, mentorlik va amaliy metodik ko‘mak tizimini joriy etish;
- inklyuziv maktabgacha ta’lim uchun maxsus pedagog, psixolog va logoped xizmatlarini rivojlantirish;
- ta’lim sifatini baholash natijalarini rivojlantirish dasturlari bilan bog‘lash;

- raqamli tizimlardan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash;
- ota-onalar, mahalla va jamoatchilikning maktabgacha ta'lim boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish;
- bolalar ovqatlanishi, toza suv va sanitariya sharoitlarini doimiy monitoring qilish.

4. Xulosa:

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilotlari sohasida amalga oshirilgan islohotlar ko'lami va mazmuni jihatidan tizimli xarakterga ega. Ushbu islohotlar yangi bog'chalar tashkil etish bilangina cheklanmay, maktabgacha ta'limning huquqiy, institutsional, moliyaviy, pedagogik va texnologik asoslarini yangilashni qamrab oldi.

Islohotlarning asosiy mohiyati maktabgacha ta'limni bolaning erta rivojlanishini ta'minlaydigan, oilani qo'llab-quvvatlaydigan va inson kapitalini shakllantiradigan strategik ijtimoiy institutga aylantirishdan iborat. Davlat-xususiy sheriklik, oilaviy bog'chalar, mobil guruhlar va erta rivojlanish markazlarining rivojlanishi ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi esa ta'lim mazmunini bolaning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil faoliyati va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirdi.

2024-yilda maktabgacha ta'lim qamrovining 76 foizga, olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlash qamrovining 96 foizga yetkazilgani sohada amalga oshirilgan ishlarning amaliy natijasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida qamrovni 80 foizga, maktabga tayyorlov guruhlarini 100 foizga yetkazish, pedagoglar malakasini oshirish va ta'lim muhitining sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan. Kelgusida asosiy e'tibor miqdoriy ko'rsatkichlardan sifat ko'rsatkichlariga o'tishga qaratilishi kerak. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning haqiqiy samarasi bolalar sonining ko'payishi bilangina emas, balki har bir bolaning xavfsiz, sog'lom, rivojlantiruvchi va inklyuziv muhitda ta'lim olishi, maktabga puxta tayyorlanishi hamda o'z qobiliyatlarini erkin namoyon eta olishi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning yangi taraqqiyot modelida inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va sifatli ta'lim tamoyillarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonning barqarorligi esa davlat siyosati, professional pedagoglar, mas'uliyatli ota-onalar, faol jamoatchilik va xususiy sektorning o'zaro hamkorligiga bog'liqdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori// <https://lex.uz/en/docs/-4327235>
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumoti//<https://gov.uz/oz/uzedu/news/view/141078>
3. <https://kun.uz/news/2023/07/08/bolalarning-maktabgacha-talim-bilan-qamrov-darajasi-malum-boldi>)
4. https://stat.uz/img/images/maktabgacha-talim-lotin_p27715.pdf)
5. O'zbekistonda bolalarning 74 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan// <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/23/preschool/>
6. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi oshiriladi// <https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/12/kindergarten/>
7. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim 2024-yil yakuni bo'yicha// https://stat.uz/img/images/maktabgacha-talim-lotin_p27715.pdf
8. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4312-son qarori,

- 08.05.2019 yil// <https://lex.uz/docs/-4327235?ONDATE=10.05.2019&ONDATE2=09.10.2020&action=compare>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5198-son Farmoni, 30.09.2017 yil// <https://lex.uz/docs/-3362886>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020 yildagi "Maktabgachata'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori. // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020 y., 09/20/802/1658-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son).
13. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. –T.: 2022. – B. 102

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000